

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 144 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолiddин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNINI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	



KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH

Ruziyev Oybek Abdumuminovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori

Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Raqamli iqtisodiyot kafedrası v.v.b.dotsenti,
Email: j.nurboyev@dtpi.uz

Annotatsiya. Bu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida hozirgi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt ta'sirida dunyoda ish o'rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o'zgarishi, yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi to'liq avtomatlashtirilishi, mamlakatimizdagi mehnat bozori mutlaqo yangi arxitektura asosida — kasb, malaka, texnologiya va ta'limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifatida ishlashini ta'minlash bo'yicha mualliflarning tahlil va takliflari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kasblar shaharchasi, investitsiya, "yashil" energetika, qurilish, transport, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, turizm, servis, IT, "dual ta'lim".

Abstract. This article presents the authors' analysis and proposals for the Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan, which is currently under the influence of new technologies, digitalization and artificial intelligence, which is dramatically changing the number, form and content of jobs in the world, fully automating 30% of existing professions in the next five years, and ensuring that the labor market in our country operates on the basis of a completely new architecture - as a single mechanism that combines profession, skills, technology and education.

Keywords: town of professions, investment, "green" energy, construction, transport, textiles, agriculture, tourism, service, IT, "dual education".

Аннотация. В данной статье представлены анализ и предложения авторов к Обращению Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева к Олий Меджлису и народу Узбекистана, который в настоящее время находится под влиянием новых технологий, цифровизации и искусственного интеллекта, что кардинально меняет количество, форму и содержание рабочих мест в мире, приводит к полной автоматизации 30% существующих профессий в ближайшие пять лет и обеспечивает функционирование рынка труда в нашей стране на основе совершенно новой архитектуры — как единого механизма, объединяющего профессию, навыки, технологии и образование.

Ключевые слова: город профессий, инвестиций, «зеленой» энергетики, строительства, транспорта, текстиля, сельского хозяйства, туризма, сферы услуг, информационных технологий, «дуалистического образования».

KIRISH

So'nggi yillarda global miqyosda texnologik taraqqiyot, raqamlashtirish va sun'iy intellektning jadal rivojlanishi mehnat bozorining mazmuni va tuzilmasini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu jarayonlar an'anaviy kasblarning transformatsiyasini, yangi kasbiy kompetensiyalarning shakllanishini hamda mehnat bozorining mutlaqo yangi modelini barpo etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun kasblarni modernizatsiya qilish, kasbiy ta'lim tizimini iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirish va ta'lim–ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida mehnat bozorini bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish jarayoni murakkab sharoitlarda kechgan bo'lsa-da, keyingi bosqichlarda ushbu sohada izchil va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomalarida yoshlarni talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasblarga yo'naltirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va kasbiy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada texnikumlar faoliyatini modernizatsiya qilish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish va dual ta'lim mexanizmlarini keng joriy etish alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda mehnat bozoriga har yili yuz minglab oliy va o'rta maxsus ma'lumotli yoshlar kirib kelayotgani, ularni ish bilan samarali ta'minlash masalasini dolzarb qilib qo'yimoqda. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasalari, xususan, hududiy institutlar faoliyatida bitiruvchilarni ish beruvchilar bilan bog'lovchi raqamli platformalar, karyera markazlari hamda amaliy ko'nikmalarga yo'naltirilgan ta'lim modellarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday yondashuv nafaqat yoshlar bandligini oshirish, balki iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari uchun yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash imkonini beradi.

Mazkur maqolada kasblarni modernizatsiya qilish jarayonlari, mehnat bozorining yangi modeli shakllanishining institutsional va amaliy jihatlari, shuningdek, kasbiy ta'lim tizimini raqamlashtirish va dual ta'lim asosida rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mehnat bozorini barqaror rivojlantirish, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytirish hamda yoshlar uchun munosib bandlikni ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehnat bozorining transformatsiyasi va kasblarni modernizatsiya qilish masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda markaziy o'rinni egallaydi. Global miqyosda raqamlashtirish, avtomatlashtirish va texnologik taraqqiyot ishlab chiqarish jarayonlari bilan bir qatorda kasbiy tuzilmani ham tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu jarayonlarni tahlil qilgan Richard Freeman mehnat bozori texnologik o'zgarishlarga moslashmagan taqdirda strukturaviy ishsizlik kuchayishini ta'kidlaydi va kasbiy ko'nikmalarni doimiy yangilab borish zarurligini asoslaydi. Uning 2015-yildagi tadqiqotlarida inson kapitaliga investitsiyalar yangi mehnat bozori modelining asosiy tayanchi sifatida talqin etiladi.

Kasblar tarkibining o'zgarishi masalasiga Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee alohida e'tibor qaratgan. Ularning "The Second Machine Age" nomli fundamental asarida raqamli texnologiyalar oddiy mehnatni siqib chiqarib, murakkab kognitiv va ijodiy kasblarga talabni keskin oshirayotgani ilmiy dalillar asosida ko'rsatib berilgan. Mualliflar yangi mehnat bozori modelida moslashuvchanlik, qayta tayyorlash va uzluksiz ta'lim institutlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ta'kidlashadi.

Kasblarni modernizatsiya qilish jarayonini institutsional nuqtayi nazardan tahlil qilgan David Autor mehnat bozorining "qutblanishi" fenomenini ilgari suradi. U 2014-yildagi empirik tadqiqotlarida o'rta malakali kasblar qisqarib, yuqori va past malakali segmentlar kengayayotganini ko'rsatadi. Ushbu jarayon mehnat bozorining an'anaviy modelini samarasiz holatga keltirayotgani, natijada kasbiy tuzilmani qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ilayotganini ilmiy asoslaydi.

Xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida ham mehnat bozorining yangi modeli masalasi keng yoritilgan. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 2020–2023-yillardagi hisobotlarida "future of work" konsepsiyasi doirasida kasbiy standartlarni yangilash, moslashuvchan bandlik shakllarini rivojlantirish va raqamli ko'nikmalarni kengaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Ushbu hisobotlarda an'anaviy kasblarning transformatsiyasi bilan bir qatorda mutlaqo yangi kasblar shakllanayotgani qayd etiladi.

Mehnat bozorini modernizatsiya qilish masalasiga sotsiologik yondashuvni Manuel Castells ilgari surgan. Uning tarmoq jamiyati nazariyasida iqtisodiy faoliyat tarmoqlar asosida qayta tashkil etilib, kasblarning mazmuni va funksional chegaralari o'zgarayotgani ko'rsatib beriladi. Castellsning 2010-yildan keyingi tadqiqotlari mehnat bozorida moslashuvchanlik va kasbiy mobilitetning yangi modelini shakllantirish zarurligini asoslaydi.

Post-sovet mamlakatlari kontekstida mehnat bozorini modernizatsiya qilish masalalarini tahlil qilgan Alisher Ismatov va Otabek Uralov tadqiqotlarida ta'lim tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi nomuvofiqlik muammosi alohida ko'rsatib o'tiladi. Ularning O'zbekiston misolida olib borgan tahlillarida kasbiy ta'limni real iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashtirish yangi mehnat bozori modelini barpo etishning asosiy sharti sifatida qaraladi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kasblarni modernizatsiya qilish jarayoni faqat texnologik yangilanish bilan cheklanmaydi. U institutsional islohotlar, ta'lim tizimini transformatsiya qilish, kasbiy kompetensiyalarni doimiy yangilash va mehnat bozorining moslashuvchan modelini shakllantirishni talab etadi. Aynan ushbu kompleks yondashuv zamonaviy mehnat bozorining barqaror va raqobatbardosh modelini yaratish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar rasmiy statistika manbalari, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, ta'lim muassasalari va mehnat bozori subyektlarining ochiq axborotlari asosida shakllantirildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda mantiqiy umumlashtirish usullari orqali tahlil qilinib, xulosalar chiqarildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillarida kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratishning yangicha iqtisodiy tizimga o'tkazish jarayoni oson kechmadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida muhtaram Prezidentimiz mehnat bozorini kengaytirishga nisbatan quyidagi so'zlarini bayon qildilar: "Mening niyatim – yoshlarimiz talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha dunyoda raqobatdosh bo'lsin, kerak bo'lsa, boshqalardan bir pog'ona ustun tursin. Ushbu maqsadga erishish yo'lida kasbiy ta'limning eng muhim bo'g'ini bo'lgan texnikumlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqamiz."

Endi texnikumlar va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqamiz. Xususan, "dual ta'lim" asosida o'qitishni samarali tashkil qilgan korxonalarga 7 yil muddatga 5 milliard so'mgacha imtiyozli kredit ajratiladi, tadbirkorlik reytingida qo'shimcha 5 ball beriladi, korxonalar ishga olgan texnikum o'quvchisi uchun 1 foizli ijtimoiy soliq imtiyozi yana uch yilga uzaytiriladi [1].

Muhtaram Prezidentimizning yuqoridagi so'zlari bo'yicha, bizning fikrimizcha, alohida qayd etish lozimki, Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining 2026-yilda rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlarida quyidagi, ya'ni ta'lim yo'nalishlarini dual ta'lim tizimiga jalb etish, korxona va tashkilotlarda tashkil etiladigan kafedra filiallari sonini oshirish, kamida B2 va undan yuqori darajadagi xorijiy tilni bilish sertifikatiga ega professor-o'qituvchilar sonini ko'paytirish bo'yicha 2025–2026-o'quv yilining 2-choragidayoq ko'plab natijalarga erishildi.

Xususan, dual ta'lim tizimiga jalb etiladigan talabalar soni 2025-yil yakunida 17 tadan 25 nafar talabaga yetdi, shuningdek, korxona va tashkilotlarda tashkil etiladigan kafedra filiallari sonini oshirish 2025-yilning 3-choragida 8 taga yetdi. B2 va undan yuqori darajadagi xorijiy tilni bilish sertifikatiga ega professor-o'qituvchilar soni esa 2025-yilning 1-choragidagi 57 tadan 2025-yilning 4-choragiga kelib 65 taga yetdi.

Yana bir masala – mehnat bozoriga yiliga 300 ming oliy ma'lumotli kadrlar kirib kelmoqda. Endi oliygoh bitiruvchilari va ish beruvchilar o'rtasida ko'prik bo'lib xizmat qiladigan raqamli ekotizim yaratamiz [2]. Shu o'rinda 2026-yilda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bitiruvchi talabalar va ish beruvchilarni "Karyera markazi" (careercentre.uz) platformasida ro'yxatdan o'tkazish hamda ishga joylashtirish bo'yicha tizimli ishlar tashkil etish maqsadida 2025–2026-o'quv yili uchun chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan.

Iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari uchun yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashga e'tiborni kuchaytirishimiz zarur [3]. Ushbu Murojaatnomaga, bizning fikrimizga ko'ra, 2026-yilda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITA"sining Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda ilmiy ishlar natijadorligini ta'minlash bo'limida xorijiy investitsiyalar, grantlar va beg'araz ko'mak mablag'lari orqali 200 000 AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb qilish hamda davlat ilmiy dasturlari doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotlardan 0.5 mlrd so'mni institut hisobiga kiritish belgilangan.

Yana bir masala – mehnat bozoriga yiliga 300 ming oliy ma'lumotli kadrlar kirib kelmoqda. Endi oliygoh bitiruvchilari va ish beruvchilar o'rtasida ko'prik bo'lib xizmat qiladigan raqamli ekotizim yaratamiz. Unda talabalarning akademik ko'rsatkichlari va korxonalardagi bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar onlayn tarzda ko'rinib turadi. Ushbu ekotizim bitiruvchi kurs talabalari uchun o'ziga mos ish topish, korxonalarga esa malakali kadrlarni jalb qilish imkonini beradi (1-rasm) [4].

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEVNING
OLYI MAJLIS VA O'ZBEKISTON
XALQIGA MUROJAATNOMASI



**KASBIY TA'LIM VA
MEHNAT BOZORINING
YANGI ARXITEKTURASI**

KASBIY TA'LIMNING ENG MUHIM
BO'G'INI BO'LGAN TEXNIKUMLAR YANGI
SIFAT BOSQICHIGA OLIB CHIQILADI.

2026-YILDAN:



Har yili kamida **100 tadan** texnikum to'liq ta'mirlanib, jihozlab boriladi.



7 ta viloyatda, 2027-yilda esa qolgan hududlarda ilg'or kasbiy mahorat texnikumi va "**Kasblar shaharchasi**" faoliyati yo'lga qo'yiladi.



Texnikumlarda "**dual ta'lim**" asosida ta'lim olayotgan **100 ming o'quvchiga** ilk bor stipendiya to'lanadi.

1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi

Ushbu Murojaatnoma bo'yicha 2026-yilda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bitiruvchi talabalar va ish beruvchilarni "Karyera markazi" (careercentre.uz) platformasida ro'yxatdan o'tkazish hamda ishga joylashtirish bo'yicha tizimli ishlar tashkil etish maqsadida 2025–2026-o'quv yili uchun chora-tadbirlar dasturida bitiruvchi talabalarni ish bilan band qilishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Xususan, "dual ta'lim" asosida o'qitishni samarali tashkil qilgan korxonalarga 7 yil muddatga 5 milliard so'mgacha imtiyozli kredit ajratiladi; tadbirkorlik reytingida qo'shimcha 5 ball beriladi; korxonalar ishga olgan texnikum o'quvchisi uchun 1 foizli ijtimoiy soliq imtiyozi yana uch yilga uzaytiriladi [5].

Ushbu Murojaatnomada nazarda tutilgan so'zlar yuzasidan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITA"sining Institut faoliyatini raqamlashtirish va ta'lim jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bo'limida professor-o'qituvchilar va xodimlar mehnat hamda kasbiy faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) platformasini takomillashtirish, shuningdek, institutning <https://lms.dtpi.uz/> masofaviy ta'lim platformasini rivojlantirish ko'zda tutilgan (1-jadval).

1-jadval. 2026-yilda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITA"¹

VI. Institut faoliyatini raqamlashtirish va ta'lim jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish					
O'quv jarayonini raqamlashtirish va ta'lim sifatini oshirish	1. Registrator ofisi xizmatlari bilan qamrab olinadigan talabalar sonini 6000 nafarga yetkazish	2026 yil, mart-dekabr	Institutning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan	Institut rektori (O.Ruziyev), O'quv ishlari bo'yicha prorektor (U.Bo'tayev)	
	2. Professor-o'qituvchilar va xodimlar mehnat, kasbiy faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) platformasini takomillashtirish.	2026 yil, mart-dekabr			
	3. Institutning https://lms.dtpi.uz/ masofaviy ta'lim platformasini takomillashtirish	2026 yil, mart-dekabr			
	4. O'quv jarayoniga oid barcha o'quv meyoriy xujjatlarni (kafedra yuklamasi, taqsimot, shaxsiy ish reja) raqamlashtirish.	2026 yil, mart-dekabr			

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt ta'sirida mehnat bozori tubdan o'zgarib borayotgan bugungi sharoitda kasbiy ta'lim tizimini zamon talablariga mos ravishda yangilash muhim ahamiyat kasb etadi. Ish o'rinlarining avtomatlashtirilishi va yangi malakalarga bo'lgan ehtiyojning ortishi mehnat bozorining mutlaqo yangi arxitekturasini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni erta bosqichdan kasbga yo'naltirish, ularning qiziqishi va qobiliyatiga mos ta'lim yo'nalishlarini tanlash tizimini joriy etish, texnikumlarni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash hamda ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq etish orqali raqobatbardosh, malakali va zamonaviy kadrlar tayyorlashga erishiladi. Ushbu chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, yoshlarning bandligini oshirish va O'zbekiston mehnat bozorini global talablarga moslashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Sh.M. Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr, 26–27-b.
- Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug va kelajagi farovon bo'ladi. 2019-yil. 126 b.
- Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. 2024-yil. 336 b.
- Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023-yil. 416 b.
- Mirziyoyev Sh.M. Erkin, obod va farovon mamlakatni — Yangi O'zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz. 2023-yil. 252 b.
- Freeman R. The Great Doubling: The Challenge of the New Global Labor Market. – New York: Oxford University Press, 2015.
- Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: W.W. Norton & Company, 2014.
- Autor D. Work of the Past, Work of the Future. – Cambridge: MIT Press, 2019.
- International Labour Organization. Global Employment Trends and the Future of Work. – Geneva, 2020–2023.
- Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2010.
- Uralov O.S. Internationalization and Labor Market Transformation in Uzbekistan. – Tashkent, 2020.
- Ismatov A. Skills Development and Labor Market Reforms in Transition Economies. – Tashkent, 2022.

¹ 2026-yilda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha "YO'L XARITA"

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100